



**Tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning
qonuniyatlarini**

Shirinov.M.K.

PhD, dots, Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Muhammedjonova.M.R.

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotsiya: maqolada maktabgacha talim tashkilotida tarbiya jarayonlari va oila tarbiyasi to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha, ta'lim, tarbiya.

Аннотация: В статье рассматриваются образовательные процессы в дошкольных образовательных организациях и семейное воспитание.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитание.

Abstract: The article discusses educational processes in preschool educational organizations and family education.

Keywords: preschool, education, upbringing.

chuqur urganishni talab qiladi. Bu qonuniyatlar voqealarni muayyan rivojlanishi uchun sharoit yaratuvchi sabab va oqibat urtasidagi muhim, zarur ichki aloqalarning ifodasi sifatida namoen bo'ladi.

Tarbiyaning birinchi va eng muhim qonuniyati uning ijtimoiy muhitning ob'ektiv va sub'ektiv omillariga bog'liqligidir. Ijtimoiy tarbiya mazmuni moddiy ishlab chiqarish usuli, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, siyosiy tuzum hamda milliy mafkura g'oyalari asosida qaror topadi. Ijtimoiy jamiyatining ijtimoi-iqtisodiy hamda siyosiy- g'oyaviy asoslarini tashkil qiladigan hamda tarbiyaning mazmuni va uning olib borilishiga kuchli ta'sir kursatiladigan ijtimoiy jarayonlar tarbiyaning sub'ektiv omillari sirasiga tarbiya muassasalari, jamoat tashkilotlari, Oqituvchilar, tarbiyachilar, oila muhiti, jamotchilik, mafkura g'oyalari, shaxsni har tomonlamma rivojlantirishga oid faoliyat kabilar kiradi.

Shaxsning rivojlanishi tarbiyaning g'oyaviy mazmuni va sifat darajasiga bog'liqdir. Ayni chog'da tarbiyaning mazmuni, shaxsning rivojlanish darajasiga ham bog'liq. Tarbiya jarayoni psixologiya fani asoslarini, shaxsning psixologik va fiziologik rivojlanish qonunlarini bilishni talab qiladi. Tarbiyachi (Oqituvchi) tarbiyalanuvchi shaxs-nini har tomonlamma o'rganishi va shu asosida ta'sir kursatishi lozim. Tarbiyalanuvchining shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlari hisobga olinmas ekan, tarbiyaviy ta'sir bir tomonlamma yoki tasodifiy bo'lib qoladi. Shuningdek, ular boshqa tarbiyaviy ta'sirlarga mos bulmay qoladi.

Tarbiyaning uchinchi qonuniyati faoliyat va munosabat birligini e'tirof etish





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

shaxsning ijtimoiy ijobiy fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manba ekanligini e'tirof etishdir.

Tarbiya jarayonining qonuniyatlari

1. Tarbiyaning ijtimoiy muhitning ob'ektiv va sub'ektiv olimlarga bog'liqligi.
2. Tarbiyaning shaxs taraqqiyoti (rivojlanishi) bilan birligi uzaro aloqadorligi va bog'liqligi
3. Faoliyat va munosabat birligining shaklida ijtimoiy ijobiy fazilatlarini shakllantirish negizi va asosiy manbai ekanligi
4. Tarbiyalanuvchilarning uzaro tarbiyaviy ta'siriga ega: ekanliklari, ularning uzoro munosabatlari hamda faoliyatlari urtasidagi bog'lanishning shaklidir.

Tarbiya tamoyillari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradi.

Tarbiyaviy jarayonda ilg'or tamoyillarga amal qilinishi uning samarasini ta'minlaydi. Tarbiya tamoyillari quyidagilardan iborat.

- tarbiyaning maqsadga yunaltirilganligi
- tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalar ustunligi
- tarbiyada milliy umumbashariy qadriyatlar ustunligi
- tarbiyada izchilik va tizimlilik
- tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qushib olib borish
- tarbiyani mehnat bilan bog'lash
- tarbiyalanuvchi shaxsini xurmat qilish
- tarbiyada oquvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish
- jamo'a va jamo'a erdamida tarbiyalash
- tarbiyada o'quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarni yuqotish.

Tarbiya usullarining xilma-xilligi

Avval ta'kidlaganimizdek, tarbiya-tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilimi va tarbiyaga e'ga bo'lgan qonunlar, tarbiyalanuvchilar (faoliyatlarini o'z ichiga olgan) bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko'rsatishlari kerak.

Demak tarbiya usuli tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning xamkorligidagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir.

“Metod”- so'zi grekcha bo'lib yo'l usul ma'nosini bildiradi. Tarbiya vositalari bu biron bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil e'tish uchun ishlatiladi. Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim.

Tarbiya usullarga tavsif.

Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujasamlashtirgan. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma xil tarbiya usullari mavjud.





1 Tushuntirish (o'rgatish, odatlantirish, mashq qildirish).

2 Namuna (maslaxat berish, uzr so'rash, o'rnak bo'lish, yaxshiliklar tug'risida gapirish).

3 Nasixat berish (undash, ko'ndirish, iltimos qilish , yolvorish, tilak itsak bildirish, ma'qullash, raxmat aytish ,duo qilish , oq yo'l tilash).

4 Qoralash va jazo (ta'kidlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish , koyish, ont, qasam, urish, kaltaqlash va x.)

Xalq pedagogikasining nodir namunalari, tarbiya usullari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan. Mexmon kutish, mexmonga borish, turli mexnat jarayonlari, xasharlar, turli guringlar, musobaqalar, turli nishonlashlar, sayllar, turli marosimlar, bazmlar. O'ziga xos tarbiya vositasi vazifasini bajaradi. Yoshlarni tarbiyalashda turli milliy an'nalar, umuminsoniy qadriyatlar asos qilib olinishi kerak.

Pedagogik maxoratga quyidagilar kiradi:

1.Nutq madaniyati

2.Tarbiyachining muomila va munosabati

3. Kommunikativ munosabat (aloqa o'rnatish) insonning qalbiga kirish qobiliyati.

4.Pedagogik odob (tarbiyachi ichki va tashqi olami)

5.Pedagogik texnika, mimika (yuz ko'z ifodasi) (gavda va qo'l harakati)-pantomimika (so'zsiz harakatlari)

6.Nutq texnikasi nafas ovoz intonatsiya (tovushni o'zgartirish qobiliyati) pauza, ritm, tamp (sur'at)

Oilaning tasnifi, ularning rivojlanish yo'nalishlari.

Hamma davrlarda ham oila o'zining bolalarini tarbiyalashda yordam olishga talabni his etgan. Tarixda odamlar katta oilalar bilan yashaganlarida oilaviy hayotning zarur bo'lgan bilim va ko'ikmalari avloddan-avlodga tarbiyaviy ravishda va oddiy kundalik o'tib ketgan. Oila jamiyat taraqqiyotining mahsuli sifatida o'zining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixiga ega. Oilaning dastlabki shakli ibtidoiy jamoa tuzumi davrida paydo bo'ldi.

Ma'lumki oila tashkil bo'lishiga avvalo erkak bilan ayol o'rtasidagi nikoh birligi asos bo'ladi.

Oilada istiqomat etuvchi oila a'zolarinint miqdoriga ko'ra:

Kichik oilalar (2 - 4 kishilik)

O'rta oilalar (5 - 6 kishilik)

Katta oilalar (7 - 8 va undan ko'p kishilik) mavjuddir.

Bolalar soniga ko'ra: farzandsiz, bir bolali, kam, o'rtacha va ko'p bolali oilalar ,

Oilada farzand tarbiyasi u tug'ilmasdan boshlanmog'i zarur. Homilador ayolning kayfiyati yaxshi, asablari sokin, iste'mol qiladigan taomlari bola organizmi uchun foydali bo'imog'i zarur. O'z vaqtida yumushlarini bajarib, dam olib, sayr qilib ovqatlanib,





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tug'ilajak bola taqdirini o'ylash uning vazifasi hisoblanadi. Er-xotin, oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi sog'lom ma'naviy muhit, xushmuomalalik, xursandchilik bolaning bexavotir, sog'lom tug'ilishiga garov bo'ladi.

Oilada chaqaloqning sog'lom o'sishi uchun muhim bo'lgan davri chilla davridir. Bu muddat kichik (20 kun) va katta (40 kun) chilla davrlariga bo'linadi. Bu davr yosh ona va bolani har tomonlama asrashni taqozo etadi. Chilla davri uchun xarakterli xususiyatlar: ona va bolani yolg'iz qoldirmaslik, ular yashayotgan xonaga hech kimni kiritmaslik (gigiyenik tomondan ham mumkin emas), chaqaloqni tuzli, tuproqli suvda tez-tez cho'miltirish (badandagi ortiqcha tuklar to'kiladi), onaga yumush qildirmaslik, quvvat beradigan, sut ko'paytiradigan taomlarni iste'mol qilish.

Sharqda qadimdan emizikli ayol taomnomasiga alohida ahamiyat berib kelingan. Yosh bo'shangan ona sut keltiruvchi kuchli taomlar bilan ovqatlanishi, sutni buzmaslik uchun piyoz, sarimsoq, garmdori, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar iste'mol qilmasligi zarur. Bular bola tanasi uchun og'udir.

Alla o'zbek xalqining qadimiy, muhim tarbiyaviy xarakterga ega qo'shiq turlaridan hisoblanadi. Ona allasidan bebahra bo'lmagan bola qalbida ota-onaga, Vatanga nisbatan mehr-muhabbat hissi bo'lishi qiyin. Alla aytmagan yoki alla eshitib katta bo'lmagan qiz bola bo'lmasa kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. "Bolangiz maktabga tayyormi?"
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi, Ma'rifat-Madadkor nashriyoti.
2. Z. G'ofurov, S. Toshev.
3. MTTda qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo'yicha trening moduli.
4. Buronova, S.
5. O. U. Hasanboyeva, M. X. Tojiyeva, Sh. K. Toshpo'latova va boshqalar.
6. Kushmatova Maftuna Maxamadali qizi.
7. A. K. Munavvarov.
8. N. Egamberdieva.
9. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi.

